

6-sinf adabiyot. 2-BSB (50 ball)

Asar tahlili

O‘qituvchiga eslatma!

Ushbu asar tahlili jarayonini Navoiyning ikkita o‘xshash mavzudagi ruboiylari asosida, yoki qofiya va radif mavzulari asosida ham bajartirishingiz mumkin

Abayning “Yoshlikdan bilim izlab” hamda Avaz O‘tarning “Har tilni biluv emdi” she’rini qiyoslang. (Tahlil yozma bajariladi)

Topshiriqni bajarish bosqichlari:

1. Abayning “Yoshlikdan bilim izlab” she’ridagi asosiy g‘oyani daftaringizda aks ettiring.
2. Avaz O‘tarning “Har tilni biluv emdi” she’ridagi muallifning bosh g‘oyasini yozing.
3. Har ikkala she’rdagi bosh g‘oyani quyidagi yo‘naltiruvchi savol va topshiriqlar orqali qiyoslang:
 - 3.1. She’riy matnlardan mualliflarning fikrlaridagi o‘xshash jihatlarni aniqlang.
 - 3.2. Matnlardan shoirlarning fikrlaridagi qanday farqli jihatlarni aniqladingiz?
 - 3.3. Shoirlarning aytmoqchi bo‘lgan fikrlaridagi o‘xshash va farqli jihatlari asosida o‘zingizning o‘y-xayollaringiz, fikr-mulohazalaringizdan xulosa chiqaring.
 - 3.4. Xulosalaringizni tartibli hamda asosli fikrlar orqali daftaringizda aks ettiring.

Baholash mezonini (50 ball)

20 ball		1 ta	2 – 4 ta	3 – 4 ta	5 – 7 ta	
1. Imlo xatolari	10 ball	10 – 9 ball	8 – 7 ball	6 – 4 ball	3 – 1 ball	
2. Tinish belgilari	5 ball	5 ball	4 ball	3 – 2 ball	1 ball	
3. Husnixat	5 ball					
matn aniq, ravon, tushunarli hamda husnixat qoidalariga rioya qilingan	5 – 4 ball					

holda yozilgan bo'lsa –						
husnixat biroz noaniq, harflar qiyshaygan, ravon o'qish biroz qiyin bo'lsa –	3 ball					
husnixat noaniq, harflar qiyshaygan, ravon o'qish qiyin, shuningdek, harflar bo'yalgan bo'lsa –	2 – 1 ball					
4. Qiyosiy tahlil va xulosa						30 ball
Matnlardagi asosiy g'oya aniq va asosli ifodalangan; muallif(lar)ning aytmoqchi bo'lgan fikrlari yo'naltiruvchi savol va topshiriqlar asosida qiyoslangan; o'quvchi qiyoslash jarayonidan keyingi bosqichda o'z fikr-mulohazalarini aniq va izchil ifodalab, bir to'xtamga kelib ishni yakunlagan bo'lsa –						25 – 30 ball
Matnlardagi asosiy g'oyani topishda aniqlik va asosli fikrlar yetishmagan, ya'ni umumiy ma'lumotlar bilan cheklanib qolingan bo'lsa-da, muallif(lar)ning aytmoqchi bo'lgan fikrlarini qiyoslash jarayonida yo'naltiruvchi savol va topshiriqlardan unumli foydalangan; qiyoslash jarayonidan keyingi bosqichda o'z fikr-mulohazalarini aniq va izchil ifodalab, bir to'xtamga kelib ishni yakunlagan bo'lsa –						19 – 24 ball
She'riy matnlardagi asosiy g'oyani topishda aniqlik va asosli fikrlar yetishmagan, ya'ni o'quvchi umumiy ma'lumotlar bilan cheklanib qolgan; muallif(lar)ning aytmoqchi bo'lgan fikrlarini qiyoslashda yo'naltiruvchi savol va topshiriqlarning ayrimlaridan (masalan, 3.3) foydalanmagan, shu sabab ishning xulosa qismi tugallanmay qolgandek taassurot uyg'otgan bo'lsa –						10 – 18 ball

She'riy matnlar tahlilini amalga oshirishda tavsiyalardan yetarlicha foydalana olmagan, shu sabab fikrlarini izohlashda og'ish kuzatilgan, ayrim fikrlari asoslangan, ayrimlari asoslanmagan, xulosalari ham juda jo'n bo'lsa –	5 – 9 ball
She'riy matnlar tahlilini amalga oshirishda tavsiyalardan yetarlicha foydalana olmagan, shu sabab fikrlarini izohlashda og'ish kuzatilgan; ishning qiyoslangandan keyingi, o'z fikr-mulohazalariga tayanib xulosa qilinishi kerak bo'lgan qismi yoritilmagan bo'lsa –	1 – 4 ball